

Aziz do'stlar!

**O'lkamizga barchamiz orziqib kutgan, go'zal va dilbar fasl
- Navro'zi olam kirib keldi.**

**Ana shu ulug' ayyom - sharqona yangi yil bilan barcha
qo'shtepaliklarni chin qalbidan samimiy tabriklayman.
Siz azizlarga, sihat-salomatlik, tinchlik-xotirjamlik,
oilangizga fayzu baraka tilayman.**

**Shu qutlug' pallalarda butun yurtimizda Navro'z bayrami
nishonlanmoqda. O'zaro mehr-oqibat, saxovat va
muruvvat ko'rsatish, tabarruk keksalarimizni yo'qlash,
nogironlar, yordamga muhtoj insonlar holidan xabar olish,
hasharlar o'tkazib, yurtimizni yanada obod qilish kabi
savobli ishlarimiz Navro'zning fayziga yanada fayz
qo'shmoqda.**

Hurmatli tumandoshlar!

**Muhtaram Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan
qat'iy va odilona siyosat tufayli har bir fuqaro o'zi
hoxlagan sohada mehnat qilib, oilasi bag'rida farovon
yashamoqda.**

**Inson erkinligi va baxtli turmush kechirishi kafolatlangan
zamonda har bir fuqaro uchun shinam yashash sharoitiga
ega bo'lish imkoniyati yildan-yilga oshmokda. Bir so'z
bilan aytganda, harakat qilgan odam kunini ko'rmokda,
hech kimdan kam bo'lmasdan umrguzaronlik qilmoqda.**

**Navro'z kunlarida faqat yaxshiliklar hakida gapiriladi,
Yaratgandan qut-baraka tilab, ishga kirishiladi. Navro'zda
bobo Quyosh hamal burjiga kiradi, kun va tun tenglashadi,
havo ilib, daraxtlar gulga, kir-adirlar ko'm-ko'k libosga
burkanadi. Piru badavlat otaxonu onaxonlarimiz esa shu
kunlarda yurtimizga faqat baraka, omonlik so'rab
shukrona keltirmoqdalar.**

Iloxim, bugungi farovonlik va to'kin-sochinlikning

**bardavom bo'lishini tilab chin dildan qilingan duolarimiz
ijobat bo'lsin.**

**Bugun biz yurtimizda mana Navro'z ayyomini nishonlash
barobarida, Yaratgandan butun dunyoda salomatlik,
tinchlik va xotirjamlik bo'lishini so'raymiz.**

**Navro'zimiz har bir oila, bir xonadon, butun yurtimizga
baxt-saodat olib kelsin.**

Navro'zi olam barchamizga muborak bo'lsin!

I.Novikov,

Qo'shtepa tumani hokimi.

2022-04-11 16:19:05